

## IBN RUSHD VA FOMA AKVINSKIY ONTO-GNOSEOLOGIK QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

***Iroda Rixsivayevna Ikramova***

*Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Sharq falsafasi va germevntika kafedrasi dotsenti  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
E-mail: ikramova11@bk.ru  
Orcid: 0009-0001-7372-2608*

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada Ibn Rushd hamda Foma Akvinskiyning falsafiy qarashlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda olamning yaratilishi va abadiyligi, aql va ruhning mohiyati, shuningdek, bilimning manbalari va turlari haqidagi qarashlar o‘rganilgan. Ibn Rushdning aristotelchilik an‘analariga asoslangan falsafiy yondashuvi bilan Foma Akvinskiyning nasroniy ilohiyotiga tayangan konsepsiyalari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar ochib beriladi. Xususan, “imkon”, “iroda”, “faol aql” va “potensial aql” tushunchalari orqali har ikki mutafakkirning metodologik qarashlari yoritiladi. Maqola Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va madaniy-falsafiy aloqalarning muhim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

***Kalit so‘zlar:*** Ibn Rushd, Foma Akvinskiy, Aristotel, olamning abadiyligi, imkon, iroda, aql, ruh, nazariy aql, amaliy aql, potensial aql, faol aql.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ONTO-GNOSEOLOGICAL VIEWS OF IBN RUSHD AND THOMAS AQUINAS

***Iroda Rikhsivayevna Ikramova***

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy  
Associate Professor, Department of Eastern Philosophy and Hermeneutics  
Tashkent State University of Oriental Studies  
E-mail: ikramova11@bk.ru  
ORCID: 0009-0001-7372-2608*

***Abstract:*** This article provides a comparative analysis of the philosophical views of Ibn Rushd and Thomas Aquinas. The study examines views on the creation and eternity of the universe, the essence of reason and the soul, as well as the sources and types of knowledge. It reveals both common and distinct aspects between Ibn Rushd's philosophical approach, rooted in Aristotelian traditions, and Thomas Aquinas's concepts, grounded in Christian theology. In particular, the methodological views of both thinkers are highlighted through the concepts of "possibility", "will", "active mind", and "potential mind". The article serves to reveal

[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz) [DOI: 10.5281/zenodo.20089854](https://doi.org/10.5281/zenodo.20089854)

*important aspects of the interaction and cultural-philosophical connections between Eastern and Western philosophical thought.*

**Keywords:** *Ibn Rushd, Thomas Aquinas, Aristotle, eternity of the universe, possibility, will, intellect, soul, theoretical intellect, practical intellect, potential intellect, active intellect.*

## **KIRISH**

Arab-musulmon jamiyatida aqliy harakatlar uch xil sohada: ilohiyot, tasavvuf va falsafada rivojlandi. Mazkur sohalar tarixiy taraqqiyoti davomida o‘zlarining eng yetuk namunalarini ishlab chiqardilar, shu uch sohada o‘z klassikalarini yaratdilar va boshqa madaniyatlar rivojiga ijobiy hissa qo‘shdilar, shu tariqa o‘zlarining universalligini namoyon etdilar. Ayniqsa, sof falsafiy ratsionallik sohasida o‘z madaniy olami doirasida turli toifa va falsafiy oqimlarni yuzaga keltirgan islom tafakkuri ilm-fan va madaniy dunyomizning rivoji va boyishiga peshqadamlik qildi. G‘arb sxolastik tafakkuriga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatib, Uyg‘onish davri harakatlarining paydo bo‘lishida ham katta rol o‘ynadi. Biz ushbu tadqiqotda islom tafakkurining eng buyuk mutafakkirlaridan biri Ibn Rushd va G‘arbning yetakchi sxolastik mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Foma Akvinskiyning falsafiy ta’limotlarini solishtirdik. Biz bu biri islomiy, ikkinchisi nasroniy bo‘lgan faylasuflarning birinchisidan ikkinchisi qay darajada ta’sirlanganligini, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlar nimalardan iborat ekanligini ochib berishga harakat qildik. Tadqiqotlarimizda bu ikki faylasufning asarlaridan imkon qadar foydalanishga ustuvor ahamiyat berdik.

## **ASOSIY QISM**

Madaniyatlararo muloqot bugungi dunyoda eng qizg‘in davom etayotgan bir paytda Sharq va G‘arb madaniyatida salmoqli o‘rin tutgan bu ikki faylasufning falsafiy ta’limotlarini qiyoslab, bu turli olamlarning har biri bir-biridan qarzdorligini ko‘rsatish orqali tadqiqotimiz muammoga oydinlik kiritadi.

Sof aristotelchi sifatida tanilgan Ibn Rushdning koinot haqidagi fikrlarini o‘rganishdan avval Arastuning bu muammo haqidagi qarashlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Ma’lumki, Aristotel falsafasida olam Xudo kabi abadiydir. Binobarin, moddiy olamda ko‘rinadigan va harakat o‘lchovi hisoblangan vaqt ham abadiydir. Ibn Rushd odatda olam muammosiga “imkoniyat”, “iroda”, “fe’l”, “harakat” va “vaqt” kontekstida murojaat qiladi va muhokama qiladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, ilohiyotchi bo‘lgan va nasroniy dogmalarini falsafiy jihatdan asoslab berishga va talqin qilishga uringan Avliyo Foma Akvinskiy olamning abadiyligini himoya qilgan averroistlar va uning yaratilishini himoya qilgan avgustiniyaliklar o‘rtasida oraliq pozitsiyani egallagan. Bu boradagi fikrlarini to‘liq muhokama qilish o‘rniga, u doimo bu masalani din va Ilohiy irodaga

bog‘lashga moyildir. Darhaqiqat, uning fikricha, koinotning abadiyligi va yaratilishiga oid tezis va antitezalarning kuchli yoki zaifligidan qat’i nazar, nasroniylik e’tiqodi bizga, eng avvalo, olamni Xudo yaratganligidan xabar beradi. Demak, Ilohiy iroda olamni bir boshlanish bilan chegaralagan; demak, koinotning miqdoriy chegarasi va oxiri bor ekan, uning ham vaqtning oxiri bor. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, Foma Akvinskiy aytadiki: “..E’tiqodga oid narsalarni isbotlash mumkin emas, chunki iymon g‘ayb bilan bog‘liqdir. Binobarin, Allohning olamning yaratuvchisi ekanligi iymon masalasidir. Olamning yaratilishi faqat vahiy orqali ma’lum. Shuning uchun uni aql va mantiq bilan isbotlash mumkin emas...” [4,243].

Bularning barchasidan so‘ng Foma Akvinskiy olamning yaratilishi e’tiqod masalasi ekanligini ta’kidlaydi, lekin u aql va falsafa nuqtai nazaridan uning abadiy bo‘lishi mumkinligini inkor etmaydi, aynan Ibn Rushd “Faslu’l-Maqal” va boshqa kitoblarida himoya qilgan fundamental fikrdir. Bu asarlarida Ibn Rushd olam zamonda abadiydir va mohiyat sifatida keyinchalik yaratilgan, degan fikrni ilgari surgan edi.

### **MUHOKAMA**

Har ikki faylasufning olamning manguligi va yaratilishi muammosi haqidagi fikrlarini muhokama qilar ekanmiz, ularning qarashlari o‘rtasidagi parallel nuqtalar, o‘xshashlik va farqlar yuzaga kelgan.

Ibn Rushd olamning abadiy ekanligi haqidagi fikrni asoslab berishda birinchi navbatda “imkon” tushunchasidan foydalanishga harakat qiladi. Uning fikricha, biror narsaning mumkin bo‘lgan holati uning haqiqiy holatidan oldin bo‘ladi. Olam, ya’ni butun borliq real voqelikni ifodalaganligi sababli, undan oldingi imkon holati haqida gapirish mantiqan zarurdir. Qolaversa, mutakallimlar ta’kidlaganidek, harakat tushunchasining teskarisi “yo‘qlik” emas, balki “imkan”dir. Harakat va imkon bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lmasligi sababli, imkon holati harakatdan oldin bo‘lishi kerak. Demak, olam abadiy imkondan tashkil topgan. Bu yerda Ibn Rushd imkonni shunchaki aqliy tushuncha emas, balki abadiy voqelik deb hisoblaydi va olamning o‘zagini tashkil etuvchi shaklsiz “birlamchi materiya” (hayula) ekanligini ta’kidlaydi.

Foma Akvinskiy ham olam mavjud bo‘lgunga qadar imkon(potentsial) holatda mavjud bo‘lganligini e’tirof etadi, lekin bu potentsial (imkoniy) passiv kuch, ya’ni materiya emas, balki Xudoning faol qudratini ifodalaydi, deb ta’kidlaydi. Demak, olam Xudoning irodasi va qudrati mahsuli sifatida yo‘qdan (ex nihilo) yaratilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, boshqa masalalarda bo‘lgani kabi Avliyo Foma ham “imkon” tushunchasini muhokama qilganda, odatda, Ibn Rushd so‘zlarini takrorlaydi. Yagona farq shundaki, u Ibn Rushddan farqli ravishda imkonni alohida voqelik sifatida emas, balki Xudoning qudrati deb biladi.

“Iroda” Ibn Rushd tomonidan olamning abadiyligini asoslash uchun qo‘llangan tushunchalardan biri ekanligini ko‘rdik. Uning fikricha, olamning posteriori (keyingi) tabiatini qabul qilish muammoli bo‘lar edi, chunki yaratilishdan oldin va keyin Xudoning irodasi o‘rtasida tafovut bo‘lardi va bu tushuncha Uning irodasi, qudrati va harakatlarining o‘zgarishiga olib keladi. Shunday ekan, koinotning yaratilishini “abadiyatda yaratilish” deb talqin qilishdan boshqa chora yo‘q.

Foma Akvinskiy esa Ibn Rushdning fikrlariga qo‘shiladi, lekin bu ilohiy irodaga emas, balki yaratilgan borliqlarning qisman (juz’iy) irodasiga ishora qiladi, deb ta’kidlaydi. Binobarin, chekli va chegaralangan substansiya bo‘lgan olam faqat ma’lum bir vaqtda Allohning irodasi bilan vujudga kelgan.

Ibn Rushd olamning abadiyligini isbotlash uchun muammoga ham harakat (fe’l) va harakatlanuvchi (fail) munosabatlari doirasida murojaat qiladi. Aniqrog‘i, Allohning zotining boqiyli Uning amali bo‘lgan olam ham abadiy bo‘lishini taqozo etadi, deb boshlaydi va shunday deydi: “...aniq dalil ba’zi kishilarni ibtidosi ham, oxiri ham bo‘lmagan, amali o‘z borligidan tashqariga qoldirilmaligi kerak bo‘lgan abadiy harakatlanuvchi tamoyilning mavjudligiga olib borar ekan, Uning amali, xuddi o‘zining mavjudligi kabi, boshlanishi bo‘lmaligi kerak. Aks holda, Uning harakati zaruriy emas, balki shartli bo‘ladi va shuning uchun birinchi tamoyil bo‘lmaydi. Binobarin, mavjudligining ibtidosi bo‘lmagan foilning harakatlari ham o‘ziga o‘xshab boshlanmasligi kerak...”[1,13].

Ibn Rushd azaliy va eng komilning amali ham abadiy va eng mukammal bo‘lishi kerak degan fikrdan kelib chiqib, olam ham zamonda emas, balki mohiyat jihatidan Alloh kabi abadiydir, degan fikrni ilgari suradi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, abadiy fail(yaratuvchi)ning harakati bo‘lgan olamning boshlanishi bo‘lmaligi kerak. Shunga ko‘ra, Alloh taoloning kamoloti nuqtai nazaridan olamning keyingi yaratilishidan ko‘ra abadiy bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Demak, chegaralangan va chekli borliqning keyingi yaratilishini Unga nisbat berish kamchilikdir.

Foma Akvinskiy bu masalada aniq pozitsiyaga ega bo‘lmasa-da, u harakatni Ilohiy irodaning namoyon bo‘lishi deb biladi. Bu yondashuv bilan u Ibn Rushdning olamga doimo aralashib turuvchi faol Xudo tushunchasidan ko‘ra, Aristotelning “Bosh harakatlantiruvchi” qarashlariga yaqinlashadi, deyish mumkin.

Foma Akvinskiy Xudo va vaqt o‘rtasidagi munosabatlarga oid ba’zi fikrlarni quyidagicha ifodalaydi: Xudo o‘z tabiatiga ko‘ra yoki vaqtga ko‘ra olamdan oldin turadi. Agar U faqat O‘zining tabiati bilan oldinda bo‘lsa, unda olam Xudo kabi abadiy bo‘lishi kerak. Agar U zamonda oldin bo‘lsa, u holda oldinlik va keyingi mavjudlik jarayonda vaqtni tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, vaqt olamdan oldin mavjud, bu mumkin emas [4,240].

Ibn Rushd fikricha, borliq harakat va zamon bilan munosabatiga ko‘ra ikki toifaga bo‘linadiki, ular ikki alohida boqiy tushuncha bo‘lib, ular o‘rtasida ongga bog‘liq munosabat mavjud: Biri Xudo, harakat va zamon bilan aloqasi bo‘lmagan boqiy zot, ikkinchisi esa zamon bilan o‘ralgan va mavjudligi harakatga bog‘liq bo‘lgan olamdir [1,37].

Shunga ko‘ra, harakat va zamondan mustaqil hisoblab bo‘lmaydigan olam ham harakat va vaqt kabi abadiy ekanligi ayon bo‘ladi. Ibn Rushd bu boradagi fikrini Qur’oni Karimning quyidagi oyatlari bilan tasdiqlashga harakat qiladi.

Foma Akvinskiyga kelsak, Aristotel singari, u vaqt va harakat o‘rtasidagi ontologik bog‘liqlik zarurligini tasdiqlaydi. Uning fikricha, harakatlantiruvchining (Xudoning) abadiyligi va davomiyligi, albatta, harakat qiluvchining abadiyligini nazarda tutmaydi. Binobarin, abadiy Xudo tomonidan harakatga keltiriladigan dunyoning keyingi mavjudligini tasdiqlash uchun hech qanday to‘siq yo‘q.

Ibn Rushd ruhning borligini tadqiq qilganda, uning eng quyi pog‘onadan boshlanib, eng yuqori, ya’ni “an-nafs an-notiqa” (tafakkur qiluvchi ruh) yoki “aql” darajasiga ko‘tarilib, ierarxik tartibda ko‘tarilishini aytadi. Biz ruhni aniqlay olmasak ham va uning tanadagi o‘rnini bilmasak ham, uning funktsiyalarini tushunishimiz mumkinligini ta’kidlaydi. Bizga bu tushunchani aql-idrok beradi. Ibn Rushd inson ruhini anglash orqali aqlni ham anglash mumkinligini ta’kidlab, aqlning ruhning eng yuqori pog‘onasida turishini va uning vazifasini ta’kidlaydi. Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan narsa aqldir. Boshqa tirik mavjudotlar fiziologik va biologik jihatdan o‘zini himoya qilish va o‘z mavjudligini saqlab qolish uchun tabiatan kuchliroq bo‘lsa, inson bu kamchilik va zaiflikni faqat o‘z aql-idroki bilan qoplaydi va shu orqali barcha tirik mavjudotlardan ustunligini ta’minlaydi. Agar sezgi qobiliyatlari ierarxiyada pastroq bo‘lgan o‘simliklarni va yuqoriroq bo‘lgan hayvonlarni o‘simliklardan ajratsa va farqlasa, insonni hayvonlardan ajratib turadigan va ularni yuqoriga qo‘yadigan narsa aqlning mavjudligidir. Binobarin, hayvonlar ham sezgi orqali idrok etadigan sezgi bilan bir qatorda, odamda aql orqali tushunarli narsalarni tushunish qobiliyati ham mavjud. Ko‘ramizki, Ibn Rushd aqlni eng yuqorida ko‘rib, uni ikki turga bo‘ladi: nazariy va amaliy.

1- Nazariy aql: Bu aql ba’zi kishilarga ilohiy iroda natijasida nasib etadi va zarur tushunchalarni egallash bilan kamol topadi. Insonlar nazariy aql-zakovat orqali amaliy aqlning amaliy foydalariga erisha olmasalar ham, bu aql muhim ahamiyatga ega, chunki u nazariy fanlarni o‘rganish orqali kamol topish imkonini beradi [2,71].

2-Amaliy aql: barcha odamlarga xos bo‘lgan amaliy aql ishlab chiqarish va ehtimoliy tushunchalarni tushunish uchun his-tuyg‘ular, sog‘lom fikr va tasavvur ma’lumotlaridan foydalanadi. Biroq, bu tushunchalarni materiyadan mustaqil va mavhum qilish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun bu tushunchalar his-tuyg‘u va tasavvurlarning yo‘qolishi bilan birga yo‘qoladi. Ushbu aql tufayli odamlar jamiyatda munosabatlar o‘rnatadilar, sevgi va g‘azabni boshdan kechiradilar.

Amaliy aql orqali odamlar o‘zlarining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradilar va hayotlarini soddalashtiradilar [1,72].

Ibn Rushdning fikricha, aql boshqa ruh kuchlari qatori faqat insonga xos bo‘lgan va yangi tushuncha va bilimlar yaratishga, aql-idrokni materiyadan ajratishga, ularni birlashtirib, tahlil qilish orqali hukm chiqarishga qodir kuch va mohiyatdir. Bu xususiyatlarning barchasi tufayli u insonning kamolotini ta’minlovchi kuch va mohiyatdir.

Aristoteldagi kabi ruhning eng yuqori pog‘onasida bo‘lgan aql Ibn Rushdda ham uchta asosiy vazifani bajaradi: 1. Mavhumlik. 2. Mavhum tushunchalarni qabul qilish. 3. Ularni birlashtirib yangi tushuncha va hukmlar. Ibn Rushd mavhumlik va idrokni “tasavvur” nomi ostida birlashtiradi. Yangi tushunchalarni yaratishni tasdiqlashga, aniqrog‘i, hukm chiqarishga kiritib, shu bilan aqlning vazifalarini ikkiga qisqartiradi [2,99].

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ibn Rushd aqlning bu xilma-xil funksiyalariga mos keladigan ma’lum darajalar borligini ta’kidlab, ularni Arastu va uning sharhlovchlariga qaraganda boshqacharoq, originalroq talqin qilgan. Darhaqiqat, Arastu aqlni ikkiga: passiv va faolga ajratsa, Ibn Rushd aqlning to‘rt darajasini ajratib ko‘rsatadi:

1. Xayoliy aql,
2. Imkoniyat holatidagi aql,
3. Orttirilgan aql va
4. Faol aql [2,101].

Ibn Rushd fikricha, aql-zakovat ierarxiyasi mavjud. Bu ierarxiyaning eng yuqori pog‘onasida turgan faol aql orttirilgan aqlning va demak, undan pastdagi barcha aqlarning mukammalidir. Orttirilgan aql o‘z imkoniyatlaridagi aqlning, uning imkoniyatlaridagi aql esa, tubida joylashgan xayoliy aqldan mukammaldir.

Foma Akvinskiy esa Aristotelning aql haqidagi ta’rifini qabul qildi. Uning fikricha, inson ruhi nafaqat tirik mavjudot, balki fikrlash qobiliyatiga ham ega. Aristotel singari u ham aqlni ikki turga ajratadi: potensial va faol.

Potensial aql (Intellectus Possibilis): passiv aql (mumkin aql) deb ham ataladigan bu aql passiv holatda bo‘ladi. Fikrlarni shakllantirish uchun faol aqlning faolligi talab qilinadi. Bu faol aql uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga olgan va faol aql bilan to‘ldirilgan ombordir. Bu aql faol aql yozadigan bo‘sh varaqqa (tabula rasa) o‘xshatiladi [4,398].

Faylasufning fikricha, boshqadan biror narsa oladigan har bir narsa shu jihatdan potensial yoki imkon holatidadir. Bu qabul qilingan narsa uning haqiqatidir. Demak, har bir mohiyat yoki shakl aql bo‘lib, o‘z borligini Xudodan oladi; Xudodan olinganlik nuqtai nazardan u potensial holatidadir va bu mavjudlik o‘zini aktuallik sifatida namoyon qiladi. Shunday qilib, aqlda potentsiallik va aktuallik mavjud.

Ibn Rushd tafovutlarni quyidagicha sanab o‘tadi: Aql-idrok qanchalik yuqori bo‘lsa, birinchisiga qanchalik yaqin bo‘lsa, ko‘proq haqiqat va kamroq imkoniyatga ega bo‘ladi va hokazo. Bu ketma-ketlik aqliy substansiyalarning eng quyi darajasi bo‘lgan inson ruhi bilan tugaydi. Demak, potensial aql tushunarli shakllar (tushunchalar) bilan solishtirganda birinchi substansiyaga o‘xshaydi. Ibn Rushd “Ruh haqida”ning uchinchi kitobida ta’kidlaganidek, bu birinchi substansiya hissiy shakllardan farqli ravishda hissiy borliqning yakuniy darajasidir. Faylasuf Aristotel buni hech narsa yozilmagan bo‘sh varaq bilan taqqoslaydi. Aql ruhiy narsalar orasida eng katta salohiyatga ega ekan, u moddiy narsalarga shunchalik yaqinlashadiki, ulardan biri uning mavjudligida ishtirok etadi. Shunday qilib, ruh va tanadan iborat yagona mavjudot paydo bo‘ladi. Bu haqiqat, garchi bu mavjudot ruhga bo‘lgani kabi tanaga bog‘liq bo‘lmasa ham. Ushbu shakl yoki ruh ostida kattaroq imkoniyatlarga ega bo‘lgan va materiyaga yaqinroq joylashgan boshqa shakllar yotadi. Bu shakllar materiyasiz mavjud bo‘lolmaydi. Bular ostida, shuningdek, elementlarning eng past darajalariga qadar cho‘zilgan va materiyaga juda yaqin joylashgan tartib va bosqichlar qatori mavjud. Ular faol va passiv elementlarning funktsiyalari va boshqa sifatlardan tashqari hech qanday faollikka ega emaslar. Bu sifatlari orqali materiya shaklga bo‘ysunadi [1,398].

Foma Akvinskiy faol aql haqida shunday deydi: "Aytishimiz kerakki, ruhning ichida yuqori aqldan (yoki intellektdan) keladigan kuch bor. Bu kuch bilan ruh tasavvurlarni (fantaziyalarni) yoritishi mumkin ... " [3,39]. Faol aql umumiy shakllarga ega bo‘lib, bunda u ularning xususiy shartlarini mavhumlashtiradi (abstraktlaydi) va bu shakllarni haqiqatda tasavvur qilish mumkin bo‘lgan holga keltiradi. Aristotel o‘z misolida faol aqlni yorug‘likka qiyoslaganidek, Foma Akvinskiy ham xuddi shunday o‘xshatishni keltirib, davom etadi: "...va inson aqli o‘z nurini Xudodan oladi..." [4,98].

Ibn Rushd fikricha, sezgi va aql biz uchun ilm manbasidir. Tirik mavjudotlarda passiv bo‘lgan sezgilar tashqi dunyoda mavjud bo‘lgan sezgi obyektlari orqali harakat doirasida o‘zini namoyon qiladi, moddiy shakllarning abstraktsiyasining birinchi bosqichini ifodalaydi.

Narsaning ongdagi shakli materiyadan mavhumlashgan holda tashqi olamdagi shaklidan ustun turadi. Bu tashqi olamdagi shakl uning tashuvchisi bo‘linishi bilan, aqldagi (yoki aqldagi) shakl va uning tashuvchisi bo‘linmasligi bilan izohlanadi. Ibn Rushd “aql” va “zehn” atamalarini sinonim sifatida ishlatadi.

Boshqa tomondan, Foma Akvinskiyning sezgi va aqlning bilim manbasi sifatida faoliyat yuritishi haqidagi qarashlari Ibn Rushd fikrlarining to‘liq takrori bo‘lib, u ham Ibn Rushd singari “aql” va “zehn” atamalarini sinonim sifatida ishlatadi.

Ibn Rushd ruh muammosini ko‘rib chiqishda o‘zi “nafs-i natiqa” (tafakkur qiluvchi ruh) deb ataydigan inson aql-zakovatini ruh qobiliyatlari ierarxiyasining

eng yuqori pog‘onasiga qo‘yadi. “Nafs-i natiqa” deb atalgan bu aql-zakovat tufayli ruhning tanadagi o‘rnini aniqlab bo‘lmasa-da, uning vazifalarini anglash mumkin. Ibn Rushd aqlni tekshirib, uni ikki turga: nazariy va amaliy aqlga ajratadi. Mavhumlik xususiyatiga ega bo‘lgan nazariy aql zarur tushunchalarni o‘zlashtirib, nazariy fanlarni o‘rganish orqali insonni kamol toptiruvchi aqldir. Amaliy aql, aksincha, mumkin bo‘lgan tushunchalarni shakllantirish uchun hislar, sog‘lom fikr va tasavvur ma’lumotlaridan foydalanadi. Bu aql materiyadan mustaqil ravishda tushunchalarni mavhumlashtirishga qodir emas. Ibn Rushd bu aql mohiyatan tanadan ajralgan modda ekanligini va u bilan o‘z shaklida ma’lum bir tarzda bog‘liqligini isbotlashga harakat qilgan.

Foma Akvinskiyning fikricha, aql ruh kuchlarining eng yuqorisi, Ilk Borliqqa eng yaqinidir. Shuning uchun aql salohiyatdan ko‘ra ko‘proq harakat bilan shug‘ullanadi; chunki, ma’lumki, Xudo birinchi borliq (Sof Amal) hisoblanadi. Foma Akvinskiy ham aqlni ikkiga ajratadi: potentsial aql va faol aql. Potensial aql passiv holatdagi aqldir. Bu intellektga Ibn Rushdning yondashuvidan kelib chiqqan holda, Foma Akvinskiy insonning potentsial aql-zakovati tushunarli shakllarni idrok etishini aytadi. U hissiy mavjudlikning oxirgi bosqichi bo‘lgan birinchi substansiyaga o‘xshaydi, hissiy shakllarni idrok etadi. Faol aql esa aktiv aql bo‘lib, tushunarli narsani ochib bergani uchun mavhumlik xususiyatiga ega. U materiyadagi potentsial aqlni haqiqiy aqlga aylantiradi. Har ikki faylasufning aql-zakovat, ruhning oliy qudrati va uning xususiyatlariga oid qarashlari o‘rtasida sezilarli o‘xshashlik mavjud.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, Ibn Rushd yaratgan Andalusiya islom sivilizatsiyasining ilmiy va falsafiy asarlari tarjima maktablari orqali ibroniy va lotin tillariga katta hajmda tarjima qilindi. Ibn Rushd asarlari tarjimasida Yevropada “Averroizm” deb nomlangan yo‘nalish vujudga kelgan edi. Bu yo‘nalishga, umuman Ibn Rushd qarashariga keskin qarshi chiqqan, uni tez-tez “bid’atchi” deb qoralagan Foma Akvinskiy qay darajada unga ergashganini ham ochib berishga harakat qilindi. Bunda bu ikki mutafakkirning falsafiy ta’limotlarini solishtirish uchun har ikkala faylasufning qadimgi va o‘rta asrlar tarixida munozara mavzusi bo‘lgan masalalarni: olamning abadiyligi yoki yaratilishi, ruh va aql muammosi va ruhning o‘lmasligi, bilim va uning turlari kabi masalalarga qanday murojaat qilganliklari tahlil qilindi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ابن رشد. تهافت التهافت. تالويل دكتور سلايمان دنيا راددياني (Ibn Rushd. Raddiyani rad .193. ص. – 1964. القاهرة، etish. Doktor Sulaymon Dunyo tahriri ostida)

2. ابن رشد. فصل المقال فيما بين الحكمة والشريعة من الاتصال.  
(Hikmat va shariat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida risola). القاهرة, 2007. – ص. 109.
3. Ikramova I. The influence of eastern peripateticism on the formation of Ibn Rushd’s doctrine of “Two truths”// Central Asian journal of literature, philosophy and culture. ISSN: 2660-6828 Vol 04 Issue: № 01 Jan 2023. – Spain. – P. 194-204.
4. Фома Аквинский. Сумма против язычников. Книги I, II. /Перевод и примечания Т.Ю. Бородай. – М.: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2004.
5. Фома Аквинский. Сумма Теологии/ Перев. А.В.Апполонова. – М., 2006.
6. Ikramova I. (2025). Ibn Tufayl “Hayy ibn yaqzon” asaridagi ontologik va gnoseologik jihatlarining tahlili. Sahrqshunoslik. 1. 208-219.
7. Ikramova I. (2025). Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy dunyoqarashida e’tiqod va aql uyg‘unligi g‘oyasining ahamiyati. Tamaddun nuri. 6-son. 9-11.
8. Ikramova I. (2024). E’tiqod va aql o‘rtasidagi munosabatlar muammosi: Ibn Rushd, al-Afg‘oniy, Murtazo Mutahhariy. XXI asr: fan va ta’lim masalalari. 1. 1-10.